

Klaus Michel

“AVESTOS” GmbH  
kompaniyasi rahbari

**Kasbiy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish va sohada xalqaro ta’lim dasturlarini joriy etish bo‘yicha O‘zbekiston-Germaniya ta’lim forumlari**

**Ma’ruzaning asosiy mazmuniy yo‘nalishlari:**

- Germaniya standartlariga muvofiq kasbiy ta’limning iqtisodiy siyosiy afzalliklari.
- Germanyaning dual ta’lim tizimini amalga oshirish tajribasi va Vietnam misolidagi ma’lumotlar.
- Sifatli kasbiy ta’limning mamlakatning kelajakdagi iqtisodiy rivojlanishi uchun ahamiyati.
- Germaniya va O‘zbekistondagi hozirgi mehnat bozori holati va imkoniyatlari.

**Hurmatli Vazir janoblari, iqtisodiyot vakillari va kasbiy ta’lim bo‘yicha ekspertlar, hurmatli hamkasblar, Avestos Group nomidan bugungi konferensiyaga xush kelibsiz deb samimiyl qutlayman.**

Sizga Leipzig Hunarmandlar palatasi prezidenti **Matthias Forssbom** va bosh direktori **Folker Luks** nomidan samimiyl salomlar hamda ularning qo’llab-quvvatlashlarini yetkazishga ijozat bergaysiz.

**Hurmatli xonimlar va janoblar,**

Kasbiy ta’lim individual rivojlanish, muntazam kasbiy malaka oshirish hamda innovatsiyaga yo‘naltirilgan iqtisodiyotlar uchun asosiy muvaffaqiyat omilidir. Xalqaro integratsiya davrida, iqtisodiyot, siyosat va madaniyatning global o‘zaro bog‘liqligi hamda xalqaro mobillikning yuqori darajasida ta’lim darajasi va ta’lim dasturlari har bir mamlakatning muhim hududiy, raqobatbardoshlik va investitsiya omillari hisoblanadi.

Shu ma’noda, “**AVESTOS Group**” o‘z oldiga ikki asosiy maqsadni qo‘yadi: barqaror va kelajakka yo‘naltirilgan dual kasblarni boshqa mamlakatlarga transfer qilish, shuningdek, boshqa mamlakatlardan kelgan yoshlar uchun sifatli va amaliyotga asoslangan kasbiy ta’lim orqali xalqaro mehnat bozoriga kirish imkoniyatini yaratish.

Korxonadagi kasbiy amaliyot va ta’lim muassasasida nazariyotni uyg‘unlashtirish bu Germaniyadagi dual kasbiy ta’lim modelining mohiyatidir.

Germaniya standartlariga muvofiq kasbiy ta'limning iqtisodiy-siyosiy afzalliklari kelajakdagi ishchilar va korxonalar uchun **win-win** vaziyatini yaratishga qaratilgan.

Dual kasbiy ta'lim modeliga qiziqish hech qachon hozirgidek yuqori bo'limgan. Yevropa Komissiyasi o'zining "**Ta'lim uchun yangi yondashuvlar**" strategik

hujjatida bu borada muhim fikrlarni ta'kidlaydi: "Ish joyida o'qitish, masalan, dual modellarning doirasida, butun Yevropada kasbiy ta'lim tizimlarining asosiy ustuniga aylanishi kerak, yoshlardagi ishsizlik darajasini kamaytirish uchun [...]".

Ko'p yillardan buyon siz bu yerda Germanyaning GIZ, AHK, DIHK va BMWK kabi tashkilotlari va vazirliklari ekspertlari hamda maslahatchilari bilan hamkorlikda nemis dual ta'lim tizimiga oid ta'lim loyihalarida muvaffaqiyatli ishlayapsiz. Siz dual ta'lim modelini yaxshi bilasiz, shu sababli men bu yerda bunga batafsil to'xtalmoqchi emasman.

Ausbildung (kasbiy ta'lim) tizimini transfer qilish qiziqroq bo'lganligi bois men shu haqida gapirmoqchiman.

Gap nemis ta'lim tizimini aynan bir xil ko'rinishda ko'chirib olish haqida emas. Tajriba shuni ko'rsatadiki, Germanyaning dual ta'lim modeli namuna sifatida yaxshi, ammo uni to'liq nusxa sifatida qabul qilish mumkin emas. Chet el ta'lim tizimini o'z mamlakatiga transfer qilmoqchi bo'lgan har qanday kishi, avvalo, mavjud sharoitlarni inobatga olishi va dual kasbiy ta'limni o'z mamlakatining ta'lim siyosati, ijtimoiy va iqtisodiy maqsadlariga moslashtirishi zarur.

Bu – boshqa mamlakatdan kelgan yondashuvning aynan nusxasini olish emas, balki moslashtirish mumkin bo'lgan elementlarni oqilonan transfer qilish haqida.

Biz duch kelayotgan asosiy vazifa – dual tizimning kuchli tomonlari va afzalliklarini o'zlashtirish imkoniyatini ta'minlashdir. Ushbu tizimni transfer qilishda sinxronizatsiya yechimi sifatida nemis kasb modellari (kasb transfer paketlari) va ularni amalda qo'llash rejalashtirilgan.

Amaliyotda biz buni 2016-yildan boshlab hozirgi kungacha Vietnam kasbiy ta'lim tizimini isloh qilishni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan hukumat loyihasi doirasida Kasbiy ta'lim boshqarmasi (DVET) bilan hamkorlikda muvaffaqiyatli amalga oshirdik. Loyiha doirasida Vietnamning 45 ta davlat kasb-hunar maktabidagi 66 ta namunaviy sinfga 22 ta nemis dual kasblari joriy etildi.

Loyiha ishtirokchilarining barchasi nemis standartlariga muvofiq yakuniy imtihonni muvaffaqiyatli topshirgandan so'ng, xalqaro miqyosda tan olingan nemis kasbiga tenglashtirilgan guvohnoma oladilar.

### **Hurmatli xonimlar va janoblar,**

kelgusidagi hamkorlik uchun shuni mamnuniyat bilan ma'lum qilamanki, Vietnam, Xitoy va 2024-yildan boshlab O'zbekistonda o'zimizning sinovdan o'tgan yechimlarimiz va to'plangan amaliy tajribamiz asosida O'zbekiston ta'lim tizimini yanada takomillashtirish maqsadiga erishishda o'z hissamizni aniq qo'sha olamiz.

Bu maqsad 2024-yil 16-oktabrdagi Prezidentning 158-sonli farmonida aniq belgilangan.

Kengayib borayotgan xalqaro integratsiya, texnologik taraqqiyot, sun'iy intellekt yordamida yaratilgan raqamlari kasbiy ta'limni mamlakatning kelajakdagi iqtisodiy rivojlanishi uchun muhim muvaffaqiyat omili sifatida yangi va qo'shimcha sinovlar bilan yuzma-yuz qilmoqda. Xalqaro standartlar, tan olingan sertifikatlar bilan birga ta'lim jarayonining yuqori sifati korxonalar uchun asosiy muvaffaqiyat mezonlari hisoblanadi.

Diqqat-e'tiborimiz kasbiy ta'lim va mehnat bozori o'rtasidagi uzviy bog'liqlikka qaratilgan. Zamonaviy o'quv rejalarimiz korxonalar uchun zarur bo'lgan milliy va xalqaro raqobatga dosh bera olish uchun muhim bo'lgan, korxonaga mos qattiq va yumshoq ko'nikmalarni (hard va soft skills) rivojlantirish uchun yetarli imkoniyat yaratadi. Biz barqaror rivojlanish maqsadlaridagi ta'limni (BNA) qo'llab-quvvatlash uchun ta'lim resurslari, interaktiv o'quv maydonlari va amaliy vositalarni taqdim etamiz. Bu orqali biz yosh avlodni kelajakdagi sinovlarga tayyorlash va barqaror rivojlanishni targ'ib qilishga hissa qo'shamiz.

Ushbu malakalarga ega bo'lgan mutaxassislar bugungi kunda darhol yuqori maoshli ish topish uchun eng yaxshi imkoniyatlarga ega. Korxonalar esa o'z navbatida uzoq o'quv jarayonlari va qo'shimcha malaka oshirish xarajatlarini tejaydi. Shu sababli, ular ta'lim jarayonining o'zidayoq ta'lim hamkorliklariga sarmoya kiritishga ko'proq tayyor bo'lishadi. Maqsad – korxonaga sodiq bo'lgan va u bilan uyg'unlashgan o'z mutaxassislarini tayyorlashdir.

Shu sababli, biz 2024-yil bahoridan sentyabr oyigacha Qashqadaryo viloyati ta'lim mas'ullari bilan hamkorlikda pilot loyihani ishga tushirdik. Bu loyiha doirasida Shahrisabzdagi 1-son kasb-hunar maktabida uch yillik "Umumqurilish ustasi" nemis kasbi va G'uzordagi kasb-hunar maktabida uch yarim yillik "Metallar texnologiyasi" kasbi korxonalar bilan hamkorlikda o'qitilmoqda. Shu maqsadda qisqa vaqt ichida nemis standartlariga mos moddiy-texnik va kadrlar bazasini yaratish zarur edi. O'qituvchilar yangi o'quv dasturlarini o'rganishlari, metodik-didaktik va ishlab chiqarish pedagogikasi bo'yicha o'z malakalarini moslashtirishlari kerak edi.

Siz ushbu ish dasturi haqida qo'shimcha ma'lumot va tafsilotlarni keyingi chiqishlarda hamkasblarimdan bilib olasiz.

### **Hurmatli xonimlar va janoblar,**

Endi men bizning nuqtai nazarimizdan hozirgi ish bozori holati, Germaniyadagi mavjud ish o'rnlari va kelajakdagi O'zbekiston-Germaniya hamkorligi uchun imkoniyatlar va istiqbollar haqida ba'zi izohlar beraman.

Hozirgi kunda Germaniyada minglab ish o'rnlari mavjud bo'lib, ayniqsa ko'plab shaharlar turli sohalarda imkoniyatlar taklif etmoqda. Germaniya shuningdek, har yili 90,000 dan ortiq malakali mutaxassislarni mamlakatga jalb qilishni rejalashtirmoqda.

Mehnat bozori va kasb-hunar tadqiqotlari instituti hisob-kitoblariga ko'ra, 2024-yilda Germaniyada mehnat qilayotganlar soni 46,1 millionga yetgan. Bu Germaniyada ish bozori, iqtisodiy inqiroz xavfi bo'lishiga qaramay, mustahkamligini ko'rsatadi.

Federal statistika tashkilotining dastlabki hisob-kitoblariga ko'ra, 2024-yil davomida ishlovchilar soni o'tgan yilga nisbatan 72 000 kishiga (0,2 %) oshgan.

2025-yilda mehnat bozori qanday rivojlanadi? Hozirgi vaziyat juda murakkab. Mehnat bozori va kasb-hunar tadqiqotlari institutining o'sish prognozasi 2025-yil uchun faqat 0,4 foizni tashkil etadi. Mazkur institutning mehnat bozori indikatorlari kelgusi oylar uchun yaxshilanishni ko'rsatmayapti.

Xulosa qilib aytganda, Germaniyada ijtimoiy mehnat va ijtimoiy pedagogika, bolalar parvarishi va ta'limi, qariyalar parvarishi, qurilish elekrotexnikasi, sog'liqni saqlash va tibbiy yordam, sanitariya, isitish va konditsioner texnologiyalari, informatika, fizioterapiya, avtomobil texnikasi va professional haydovchilar sohalarida malakali ishchi kuchiga talab eng katta bo'lib qolmoqda.

Kelgusi yillarda bizni nima kutmoqda? Germaniyada 2030-yil mehnat bozori qanday bo'ladi?

2030-yil mehnat bozori boshqacha bo'ladi, u ishchilarga va ish beruvchilarga ko'proq moslashuvchanlikni taqdim etadi, ammo buni talab qiladi ham. Kelajakdagi mehnat bozori ko'plab o'rghanish imkoniyatlari va tizimlarini talab qiladi va yaratadi. Kelajakdagи mehnat bozori ish munosabatlarining katta darajada individualizatsiyasi va maosh va an'anaviy ijtimoiy ta'minotdan ancha keng bo'lgan yangi rag'batlantirish tizimlaridan tashkil topadi.

Hamkorlik tobora ko'proq xalqaro, o'zgaruvchan tizimlarda amalga oshiriladi, bu tizimlarda klassik doimiy ishchilar avtomatlashtirilgan va aqlii dasturlar bilan ko'proq ishlaydi.

Germaniyada ish dunyosi katta o'zgarishlar bilan duch kelmoqda. Eng katta chaqiriq, demografik o'zgarishlar sababli yuzaga kelgan ish bilan ta'minlanmaslikni bartaraf etish bo'ladi.

Agar kompaniyalar xodimlarni topa olmasa, nima bo'ladi? Mana, Germaniyada malakali ishchilar yetishmasligi bo'yicha hozirgi holatga qisqacha nazar.

Asosan ijtimoiy va hunarmandchilik kasblari hozirgi vaqtida malakali ishchilarning yetishmasligidan eng ko'p aziyat chekayotgan sohalardir.

Hozirgi ma'lumotlarga ko'ra, Germaniya Markaziy Hunarmandlar Uyushmasining (ZDH) ma'lum qilishicha, hunarmandchilikda 250 000 malakali ishchi yetishmayapti va 20 000 ish o'rni bo'sh qolgan.

Biroq, hozirda malakali ishchilarning yetishmasligi ilgari ishchi kuchi kamligi haqida shikoyat qilmagan sohalarga ham ta'sir qilmoqda. Bu, shuningdek,

matematika, informatika, tabiatshunoslik va muhandislik fanlari hamda texnikaga tegishli bo'lgan kasb sohalarini ham o'z ichiga oladi.

Quyida Germaniyada malakali ishchi kuchining yetishmasligi bo'yicha ba'zi aniq raqamlar keltirilgan:

1. Ijtimoiy mehnat va ijtimoiy pedagogika: 20.578
2. Bolalar parvarishi va tarbiyasi: 20.466
3. Qariyalarni parvarishlash: 18.279
4. Qurilish elektrotexnikasi: 16.974
5. Sog'liqni saqlash va kasalxona parvarishi: 16.839
6. Sanitariya, isitish va konditsioner texnikasi: 14.013
7. Informatika: 13.638
8. Fizioterapiya: 12.060
9. Avtomobil texnikasi: 11.771
10. Professional haydovchilik: 10.562

Bundan tashqari, asosan qurilish hunarmandchiligidagi malakali ishchi kuchining yetishmasligi mavjud, ayniqsa sanitariya, isitish va konditsioner texnikasi hamda qurilish korxonalarida.

Eng katta malakali ishchi kuchi yetishmovchiligi elektr jihozlarini qurish sohasida kuzatilmogda, bu sohada 18,300 dan ortiq mutaxassislar yetishmayapti. Ikkinci o'rinda esa 16,300 bo'sh ish o'rni bilan avtomobil texnikasi sohasida mutaxassislar yetishmayapti. Kelajakda eng talabgor bo'lgan hunarmandchilik kasblarining yuqori 5 taligi mexatronika va elektr, transport qurilishi, quvurlar o'rnatish va binolarni qurish bo'yicha ishlarga oid sohalarda to'g'ri keladi.

Yuqarida keltirilgan talab raqamlariga asoslanib, O'zbekiston iqtisodiyotining talablarini solishtirgan holda, kelajakdagagi hamkorlik doirasida doimiy ravishda o'zaro foydali "**win-win**" holati yuzaga kelishini ta'kidlashimiz mumkin.

Nemis dual ta'lif standartiga asoslangan kasblarni va ularning mehnat bozoriga yo'naltirilgan ta'lif va imtihon standartlarini o'zbek texnikumlariga joriy qilish orqali ushbu loyiha yuqori malakali mutaxassislar bo'lgan yangi avlodni shakllantirish imkonini beradi. Nemis mehnat bozoriga bu mutaxassislar malakali ishchi kuchini taqdim etadi va kasb-hunar yetishmovchiligi bilan kurashishda yordam beradi. Ammo, shuningdek, O'zbekistonda allaqachon faoliyat yuritayotgan **Siemens**, **Deutsche Bahn**, **Knauf** va **Papenburg** kabi nemis kompaniyalari, shuningdek, **Wiesmann**, **Aurubis**, **Carl Gross**, **Hugo Boss** kabi yaqinda O'zbekistonga kirgan kompaniyalar uchun ham bu yuqori malakali mutaxassislar avlodni eng yaxshi ish imkoniyatlari ega bo'ladi.

Xalqaro standartlarga muvofiq yaxshi malakali mutaxassislarining O'zbekiston iqtisodiyoti uchun zaruriyati va foydalari haqida sizga tushuntirish berishim shart emas, chunki siz bu haqida yaxshi ma'lumotga egasiz. Biroq, nemis nuqtai nazaridan men sizning mamlakatingizda avvaldan yaxshi rivojlangan sanoat sohalarini, masalan, avtomobil sanoati, qishloq xo'jaligi mashinalari va elektr mahsulotlari ishlab chiqarishni kuchaytirishning naqadar muhimligini ta'kidlashni istardim. Ushbu sanoat sohalari o'zining yuqori qo'shilgan qiymat imkoniyatlari bilan kalit rolini o'ynaydi. Ular yangi shart-sharoitlarni yaratib, matolar va oziq-ovqat sanoati, qayta tiklanuvchi energiya manbalari sohasidagi sanoatlarni, metallurgiya, kimyo sanoati, elektrotexnika va boshqa sohalarni rivojlantirishga yordam beradi va yuz minglab ish o'rinalarini ta'minlaydi.

Bu sanoat tarmoqlariga tegishli Germaniyada talab etiladigan kasblarni biz siz bilan birgalikda tanlab, mamlakatingizning o'ziga xos xususiyatlari moslashtirib, texnikumlarga joriy etib, ta'lif berishni tashkil qilamiz. Shuningdek, biz sizga 25 ta tanlangan kasbni taqdim etishni va tavsiya etishni istaymiz. Ushbu tadbir davomida tegishli axborot materiallarini sizga taqdim etamiz.

Agar biz birgalikda nemis kasblarini joriy etish yo'lga qo'yemoqchi bo'lsak, barcha ishtirokchilar bir narsani tushunishlari kerakki, bu nafaqat katta moddiy-texnik va moliyaviy resurslarni taqdim etish haqida, balki muvaffaqiyat har bir kishining ushbu jarayonda amalga oshirishga bo'lgan ishtiyocoq va o'zgarishlarga tayyorligi asosida yotadi. Biz sizga ushbu yo'lga faol yordam berishga tayyormiz.

### **Hurmatli xonimlar va janoblar,**

So'zim yakunida yana bir bor ta'kidlashni istardim: **Yaxshi ta'lif olgan** insonlarning mehnatga layoqatli ish topishlari va barqaror ravishda o'z hayotini ta'minlashlari uchun ko'proq imkoniyatga ega bo'ladilar. Biz birgalikda bu yerda mutaxassislarni tayyorlash va ularga yaxshi hayotiy istiqbollarni ta'minlash uchun ishlayapmiz.

Ushbu ulkan ta'lif loyihasi kompaniyaga yo'naltirilgan kasb ta'lmlari va xalqaro miqyosda tan olingan kasb sertifikatlari bilan yosh mutaxassislarni tayyorlash, ko'plab iqtisodiy mamlakatlarning O'zbekiston bozoriga qiziqishini oshirishga, kelgusi yillarda ularning investitsiya qilishga tayyorligini kuchaytirishga, O'zbekistonning qulay joylashuv, raqobatbardoshlik va investitsiya jihatidan afzalliklarini yanada yaxshi tushunishga va O'zbekistonning Markaziy Osiyodagi kelajakdagi rolini mustahkamlashga yordam beradi.

Biz ishonamizki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining amaldagi ta'lif tizimini yanada yaxshilash va raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash uchun xalqaro ta'lif dasturlarini joriy etish bo'yicha qabul qilgan farmoni mamlakatning kelgusidagi muvaffaqiyatli rivojlanishidagi muhim bir bosqichni tashkil qiladi.

*Sizlarga sog'lom va muvaffaqiyatli 2025-yilni tilayman!*

*E'tiboringiz uchun rahmat!*

"AVESTOS" GmbH kompaniyasi | [www.avestos.com](http://www.avestos.com)  
web sahifasi:

Adress: Messe-Allee 2, 04356 Leipzig,  
Germaniya

Klaus Michel elektron | [klaus.michel@avestos.de](mailto:klaus.michel@avestos.de)

Pochtasi:

"AVESTOS" GmbH QR CODE



BILDEN · BERATEN · BEGLEITEN

• Ta'lim

• Maslahat

• Hamrohlik